



80-YILLAR SHE'RIYATI VA UNING O'RGANILISHI

Dehqonova Maxsuma Shavkatovna
FDU adabiyotshunoslik kafedrası
katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD)

Аннотация: 80-yillar she'riyatiga adabiy tanqidchilikda qayta va qayta murojaat qilingan. Tanqidchi olimlar, adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan bu sohaga doir izlanishlar nazariy jihatdan sayqallanib bordi. 80-90-yillar davomida o'zbek she'riyatini sinchkovlik bilan o'rgangan No'monjon Rahimjonov o'zining qator monografiya, maqola va tezislari bilan adabiy jarayonni boyitdi.

Калит so'zlar: 80-yillar she'riyati, tahlil, talqin, davr she'riyati, lirik qahramon, lirikada inson va jamiyat.

Аннотация: Поэзия 80-х годов неоднократно упоминалась в литературной критике. Теоретически сформировались исследования в этой области, которыми занимались ученые-критики, литературоведы. Но́монжон Рахимжо́нов, внимательно изучавший узбекскую поэзию в 80-90-е годы, обогатил литературный процесс своими многочисленными монографиями, статьями и диссертациями.

Ключевые слова: поэзия 80-х годов, анализ, интерпретация, поэзия того времени, лирический герой, человек и общество в лирике.

Annotation: Poetry of the 80s has been repeatedly mentioned in literary criticism. Theoretically, research in this area was formed, which was carried out by critical scholars and literary scholars. Nomonjon Rakhimjonov, who carefully studied Uzbek poetry in the 80-90s, enriched the literary process with his numerous monographs, articles and dissertations.

Key words: poetry of the 80s, analysis, interpretation, period poetry, lyrical hero, human and society in lyrics.

80-yillar she'riyati bo'yicha alohida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos No'monjon Rahimjonov hisoblanadi. Uning muallifligidagi "Davr va o'zbek lirikasi"¹ monografiyasida lirika taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari tadqiq etilgan. Monografiya davr va she'riyat, mahorat masalalari tadqiq etilgan.

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, uning o'rganish obyekti inson va jamiyat, uning turli davrlardagi silsilasi va taraqqiyotidir. Ushbu monografiyada ham shu davr lirikasi va unda inson muammosining turli talqini tadqiq etiladi. Bu muammolar she'riyatda tarix va inson, insonning tarixdagi o'rni, insonning o'tmishi va bugunini qiyoslash, tiriklik mazmuni kabi jihatlarida o'zini namoyon etayotgani qayd etiladi. Fikrlarini M.Shayxzoda she'riyati bilan izohlaydi. "M.Shayxzoda lirikasiga nazar

¹ Раҳимжо́нов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 189 б.





tashlaylik. Uning 60-yillardan keyingi lirikasida davr va inson talqini XX asr o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan, uning taraqqiyot tendensiyalari bilan, inson va insoniyat taqdiri bilan bog'liqlikda ko'rkam ko'rinish kasb etadi...Javobgarmiz bu dunyoga, insoniyatga, Javobgarmiz biz bu kunga, ertangi kunga. Oyga, ko'kka, kitoblarga, madaniyatga, O'rmonlarga, ummonlarga, tongga, to'lqinga"². Shoir she'rida insonni bu dunyo uchun mas'uliyat bilan qarashga chaqiradi. Uning bu chaqirig'ida kelajak avlodga dunyoni toza va sof, go'zal tarzda qaytarish tuyg'usi shoirni qamrab olgan. Uning bu orzusi insoniyatga qanchalik mas'uliyat bilan qaraganini ifodalaydi. Olimning o'rganishicha, shoir she'riyatida davr obrazi yetakchi mavqe tutadi. Bu davr lirikasini baholar ekan, lirikaning ustun jihatlarini asoslashga harakat qiladi. Haqiqatan, lirika shoir tuyg'ularini, davrning shiddatini, davrning obrazini gavdalantirib beruvchi muhim vositadir.

A.Muxtor she'rlarini tahlil qilar ekan, unda ham ayni inson mavzusi bo'y cho'zayotgani ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, vaqt obrazining markazda turishi, she'rlarida zamondoshlari ma'naviy-intellektual hayotining falsafiy talqini aks etishini yuqori baholaydi. "A.Muxtor ijodiy kredosi mana shu fikrni o'zida tajassum etgan...O'tib borar, zulmlar o'tib borar, Biri – buyuk, qay biri – oddiy. Biri uchar mangulikka qarab, Biri vazmin va qariyb moddiy. A.Muxtor vaqt, hayot, go'zallik, mangulik singari boqiy mavzularga tez-tez murojaat etarkan, ularni inson umrining mohiyati, mazmuni nuqtai nazaridan turib yoritadi"³. Olim tahlillaridan xulosa qilish mumkinki, 80-yillarga kelib lirikada inson va uning jamiyatdagi o'rni, insonning mukammallashuvi, ongi va shuurining rivojlanishi kabi she'rlar shoirlar ijodining asosiy mavzusiga aylangan. Shu bilan birga, N.Rahimjonovning "So'nggi yillarda adabiyotshunosligimizda "falsafiy lirika" o'rnida "fikriy she'riyat" singari ibora tez-tez qo'llanib turibdi. Bu ibora falsafiy lirika tabiatini ko'p jihatdan ta'riflay oladi. Zotan, fikrni hissiy tarzda jo'shqinlik bilan ifodalash ushbu turning bosh va yetakchi fazilatidir"⁴ kabi xulosalari ham mavjud. Erkin Vohidov she'rlari tahlilida hayotdagi illatlarni, qoraliklarni, qusurlarni inkor qilishda go'zallik eng yaxshi qurol ekani aytiladi. Olimning ta'kidicha, insonning aqliy salohiyatini madh etish va bu orqali hayot go'zalligini tasdiqlash shoirning bosh estetik prinsipidir. Shu bilan birga, shoir

² Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.9.

³ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.24.

⁴ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.29.





she'rlarida tasvirda musiqiylik, inson ruhiyatining psixologik tahlili teranlashadi. Monografiyaning keyingi bo'limi lirikada tabiat va jamiyatning akslanishiga bag'ishlanadi. She'riyatdagi barcha lirik janrlarda tabiat tasviri (peyzaj) keng o'rin egallaydi. Tabiat tasviri shoirning maqsadi, falsafasi, his-tuyg'usini ifodalash uchun xizmat qiladi. "Shu ma'noda peyzaj lirikada insoniy his-tuyg'u va kechinmalarning yorqin tajassum topishi uchun fon va ayni vaqtda organik xujayra vazifasini o'taydi. Ana shunday kezlarda tabiat o'zining mutlaq va barhaq qonunlari bilan namoyon bshlmaydi. U inson singari quvonadi, bo'zlaydi, yig'laydi, tushkunlikka tushgandek og'ir va ma'sum sokinlikka cho'madi. Bular bejiz emas, albatta"⁵. Olim ta'kidlaganidek, peyzaj shoirning maqsadi yo'lida xizmat qiladi Lirik qahramon kayfiyatiga qarab, tabiat hodisalari ham o'zgaradi. Uning jo'shqin hislari barq urgan gullar, nur sochgan quyosh bilan ifodalansa, ruhiyati tushkunligi xazon bo'lgan barg, shivirlagan yong'ir, qahraton sovuq orqali yuzaga chiqariladi. Bundan tashqari, insoning his-tuyg'ulariga eng katta ta'sir etuvchi kuch ham tabiatdir. Albatta, bu har bir insonning individual xarakteriga qarab o'zgaradi. Shu kungacha sir-asrorga to'la bo'lgan inson ruhiyati tabiatdan turlicha zavqlanadi. Kimningdir lirik qahramoni oddiy yeldan zavq olsa, yana kimningdir qahramoni kavsar suvidan zavqlanadi. Bu shoirning o'ziga xos fe'li va sajiyasiga qarab belgilanadi.

H.Olimjoning "Baxtlar vodiysi" she'rini tahliliga nazar solsak, unda tabiat tasviri orqali o'sha davr odamlari, ularning o'y-mushohadalaridan xabar beradi. Mirtemirning "Bulut" she'rida esa peyzaj insoniy ruh, dard, sevinchni ifodalashga xizmat qilgan. Shoir she'rida insonning ichki dunyosini ochib bergan. "Ko'k yuzida paha bulut – oq bulut... Bir qarasang – osmon to'la oqquvlar, Bir qarasang – baland qorli cho'qqilar, Bir qarasang – ko'z ilg'amas oq barqut. Ko'k yuzida - yorug', oydin bir ro'yo...Usta rassom chizmish ajib manzara -...Ma'lumki, peyzaj lirikada shoir niyatlariga bo'ysundirilgan tobe funksiyani o'taydi. Mirtemir ham bulut tasviriga keng o'rin berar ekan, o'z maqsadlaridan kelib chiqib, o'quvchi qalbida psixologik assosiasiyalar uyg'otadi; ayni vaqtda ona o'lkamizning tabiati uchun xarakterli bo'lgan jonli kartinalarni ham yaratadi"⁶. Olimning tahlillaridan ko'rinadiki, peyzaj to'la ravishda shoir kayfiyati, niyati, tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qilgan. Bizning fikrimizcha, peyzaj haqiqatan lirik qahramon, ya'ni shoir maqsadlarini ko'rsatib bergan. Shu bilan

⁵ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.56.

⁶ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.60.





birga, tabiat tasviri shu qadar go'zalki, Mirtemir undan ilhomlanib, bu satrlarni qog'ozga muhrlagan. Nazarimizda, peyzaj orqali shoir niyatining ifodasi ayni bu she'rda ko'rinmaydi. Chunki, she'rda g'oyaviy maqsad ham, peyzajni tobelantirish ham uchramaydi. Shunchaki, ko'kka boqib tabiat go'zalligidan ilhomlangan shoirning sof tuyg'ulari qog'ozda o'z aksini topgan. Bizga ma'lum bo'lganidek, peyzaj shoir niyati va maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Bu qoida barcha she'rga ham taalluqli emas. Chunki, ilhom kelgan paytda, maqsad ham, niyat ham chekinadi. Olimning ta'kidicha, bu davrdagi she'rlarda tabiat, mehnat, go'zallik kabi tushunchalar bog'liq holda taraqqiy etgan. Ayniqsa bu jihat Zulfiya she'rlarida yaqqolroq namoyon bo'lgan. "Men chizolmagan surat" she'ri shoiraning estetik kredosini ma'lum darajada inkishof etadi. Qishloqlarni kezdin, borligim Jarangli dam sehriga maftun, Vatandosh, sen baxtiyorligim, Sensiz na kuy, na hayot butun. Qahramonni chaqirdim, yondan, Tovush berdi kolxozchi ayol. Yellar yuvgan yuzida ilhom – Men yozajak kuydan barkamol...O'z baxtiday vazmin bu zotda....Shoira lirikasidagi ana shu maslak, e'tiqod o'zbek ayolining taqdiri va Vatan taqdiri, ayol baxti va insoniyat iqboli, ayol qadri va ona sayyora qadri aspektlarida tajassum topadi"⁷. Olim ta'kidlaganidek, Zulfiyaning ijodida o'zbek ayollarining turli taqdiri, mehnati evaziga omonlik, baxt topgan zahmatkash ayollar tasviriga keng o'rin berilgan. Yuqoridagi she'rga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shoira ayolning "el yuvgan yuzi"ni juda aniq tasvirlaydi. Mehnatdan bosh ko'tarmagan bu ayolning yuzi yepkin yellar ta'sirida zog'ora non kabi yorilgan, quruqshab ketgan. Zulfiya esa bu yuzni shu darajada chiroyli tasvirlaydiki, kitobxonning ongida "el yuvgan yuzli" go'zal paydo bo'ladi. Shu hoida ham u baxtli, o'tgan kunidan, mehnatidan mamnun. Haqiqiy o'zbek ayolining siymosini chiza olgan Zulfiya ijodi falsafiy mushohadalarga boyligi bilan doimo ajralib turgan. Ushbu monografiyadan 80-yillar she'riyati xususida nazariy xulosalar olishimiz va shoirlarning poetik mahoratini yaqqolroq anglashimiz mumkin. Shu bilan birga, o'zbek lirikasi taraqqiyotining xususiyatlarini, o'ziga xos jihatlarini yoritib berishi bilan adabiyotshunoslik uchun muhim manba vazifasini o'taydi.

⁷ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.77.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 188 б.
2. Dehkonova, M. S. (2020). Oybek's poetry through analyses of representatives of oybek studies school. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
3. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). Oybek dostonlarida mavzular xilma-xilligi va obrazlar tasviri. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.

